O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 16-sentabr | 495-11-0-Q/24 | Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga binoan davlat-xususiy sheriklik loyihalariga xususiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadli ko‘rsatkichini ta’minlash, yuqori iqtisodiy o‘sishga erishish uchun hududlarda zarur bo‘lgan ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish, elektr energiyasini ishlab chiqarishda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishdagi muvaffaqiyatli tajribani boshqa sohalarga tatbiq etish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi "O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-308-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi "O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-308-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

2024-2026-yillarda ustuvor davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar 1-ilovaga muvofiq:

2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar (keyingi o‘rinlarda - Dastur) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Bunda:

yirik shaharlar o‘rtasida qulay va tezkor avtomobil qatnovi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish maqsadida kamida 1 000 km zamonaviy pullik magistral avtomobil yo‘llarini qurish va modernizatsiya qilish, shu jumladan Toshkent-Samarqand yo‘lini qurish ishlarini 2024-yilda hamda Toshkent-Andijon yo‘lini 2026-yilda boshlash;

yillik energiya yo‘qotishlarini kamida ikki baravar pasaytirishni belgilagan holda barcha hududlarda elektr taqsimlash tarmoqlarini 2027-yil 1-iyulga qadar, tabiiy gaz taqsimlash tarmoqlarini esa 2027-yil yakuniga qadar xususiy operatorlarga topshirishni nazarda tutuvchi shartnomalarni imzolash;

yiliga qo‘shimcha 30 foizgacha elektr energiyasini tejash maqsadida 2028-yilga qadar barcha ma’nan eskirgan irrigatsiya nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish bo‘yicha kelishuvlarga erishish;

toza va doimiy ichimlik suvi bilan ta’minlash qamrovini 87 foizga, markazlashgan oqova suv ta’minoti qamrov darajasini 30 foizgacha oshirishni nazarda tutgan holda 2028-yil yakuniga qadar har bir hududda ichimlik va oqova suv tarmoqlarini modernizatsiya qilish va boshqaruvga berish uchun xususiy kompaniyalarni jalb qilish;

400 mingdan ortiq o‘quvchilar sig‘imiga ega zamonaviy ta’lim muassasalari hamda 300 mingdan ortiq tarbiyalanuvchilar sig‘imiga ega maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil qilish maqsadida 2026-yildan boshlab davlat-xususiy sheriklik (keyingi o‘rinlarda - DXSH) tamoyillari asosida har yili kamida 100 ta maktab va 100 ta maktabgacha ta’lim muassasalarini qurish va boshqarishni tashkil etish;

ilg‘or texnologiyalarga asoslangan tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 100 mingdan ortiq bemorlarga xizmat ko‘rsatuvchi ko‘p tarmoqli shifoxonalarni qurish va ularni xususiy operatorlar boshqaruviga berish lozimligi inobatga olinganligi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari Dastur loyihalariga xalqaro moliya institutlari talabini inobatga olgan holda Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi so‘rovi asosida yer maydonlarini ajratish uchun shaxsan mas’ul etib belgilanganligi;

Dasturga kiritilgan loyihalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish, Davlat-xususiy sheriklik jamg‘armasiga kelib tushgan mablag‘larni samarali boshqarish, shu jumladan loyihalarga konsultantlarni jalb qilish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tuzilmasida umumiy shtat birliklari doirasida davlat muassasasi shaklida “Davlat-xususiy sheriklik loyihalari markazi” loyiha ofisi (keyingi o‘rinlarda-Loyiha ofisi) tashkil etilganligi:

Loyiha ofisi doimiy ravishda roud-shou, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil qilish, xalqaro platformalardan keng foydalanish, DXSH yo‘nalishida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv seminarlarini tashkil etish, ularning amaliyotini chet elda o‘tkazish hamda xalqaro sertifikatlar olishni tashkillash;

Loyiha ofisiga Dastur loyihalarida mahalliy kontentni ko‘paytirish va loyihalarni milliy valyutada moliyalashtirishni kengaytirish bo‘yicha o‘quv dasturini ishlab chiqish vazifalari yuklatilganligi;

har bir DXSH loyihasini o‘z vaqtida va samarali amalga oshirishni ta’minlash uchun quyidagi tizim joriy qilinganligi:

Vazirlar Mahkamasida har chorakda mazkur qarorda belgilangan vazifalarning ijrosi tanqidiy muhokama qilib borilishi yo‘lga qo‘yilishi;

vazirlik, idora va xo‘jalik birlashmalarining rahbarlari tomonidan har yili bir marta DXSH loyihalarining holati yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida taqdimot qilinishi belgilanganligi ma’lumot va ijro uchun uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (Sirojitdinov, Isaqov, Raximov, Mamajonov), shuningdek, Maktabgacha va maktab ta’lim boshqarmasi (Dolimov), Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (Pirimqulov), Transport boshqarmasi (Safarov), Avtomobil yo‘llari hududiy boshqarmasi (Izzatillayev), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Ro‘zaliyev), Farg‘ona hududiy elektr tarmoqlari AJ (Saydulayev), Xudud gaz ta’minoti (Abdumajidov), Qurilish va uy-joy kamunal xo‘jaligi boshqarmasi (Pozilov), Farg‘ona suv ta’minot MCHJ (Yuldashev), Ekalogiya atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (Jumanov), Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (Pozilov), shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda Dastur doirasidagi DXSH loyihalarini sifatli amalga oshirilishi, amaliyotga tatbiq etilishi hamda atrof-muhit va ijtimoiy xavfsizlik standartlariga muvofiqligini eng yaxshi xalqaro amaliyotlar asosida tashkil etishni ta’minlasin.

4. Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Ro‘zaliyev) boshqarma, tashkilot va korxonalar rahbarlari, shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda 2024-yil 1-noyabrga qadar 2024-2030-yillarda DXSH asosida amalga oshiriladigan loyihalar dasturiga kiritilgan har bir DXSH loyihasi bo‘yicha ularni amalga oshirishning hududlar kesimida kompleks tarmoq jadvallarini ishlab chiqib, Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritsin.

5. Viloyat hokimining o‘rinbosari (Raximov), Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (Pirimqulov), Madaniyat boshqarmasi (Tojiboyev), Sport boshqarmasi (Xakimov) va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi (Saliyev) shahar va tuman hokimlari bilan birgalikda 2024-yil yakuniga qadar samarasiz foydalanib kelinayotgan viloyatdagi yirik shifoxonalar, madaniyat va sport inshootlarini (shu jumladan, madaniyat saroylari, stadionlar, konsert zallari, istirohat bog‘lari) xatlovdan o‘tkazib, xususiy sektorga DXSH asosida o‘tkazish bo‘yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

6. Belgilansinki, boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar hamda shahar va tuman hokimliklarining birinchi rahbarlari belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar va vazifalarni to‘liq, sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish hamda salohiyatli investorlarni jalb qilish uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

7. Mazkur qarorning ijrosi nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasigayuklatilsin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 16-sentabrdagi
495-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2024 — 2026-йилларда устувор давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини амалга ошириш бўйича чора-тадбирлар

Т/р	Лойиҳа номи	Лойиҳани амалга ошириш механизми	Ижро муддати	Масъул ижрочилар
Жами 16 та лойиҳа 11 646 млн долл.				
I. Соғлиқни сақлаш соҳаси				
1.	Халқаро молия корпорацияси кўмагида Фарғона вилоятида 800 ўринли кўп тармоқли шифохона ташкил этиш. *(Лойиҳанинг дастлабки қиймати — 306 млн долл.)*	1. Лойиҳа концепциясини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш. 2. Тендернинг биринчи босқичини ўтказиш. 3. Тендернинг иккинчи босқичини ўтказиш. 4. Тендер ғолибини эълон қилиш ва ДХШ тўғрисида битим имзолаш.	2024-йил сентябрь 2025-йил февраль 2025-йил август 2025-йил декабрь	Соғлиқни сақлаш вазирлиги *(А. Худаяров)*, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов)*, Фарғона вилоят ҳокимлиги *(Х. Бозаров)*
II. Транспорт соҳаси				
2.	Жаҳон банки кўмагида Тошкент — Андижон пулли автомобиль йўлини (303 км) қуриш. *(Лойиҳанинг дастлабки қиймати аниқлаштирилмоқда)*	1. Лойиҳа концепциясини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш. 2. Тендернинг биринчи босқичини ўтказиш. 3. Тендернинг иккинчи босқичини ўтказиш. 4. Тендер ғолибини эълон қилиш ва ДХШ тўғрисида битим имзолаш.	2024-йил октябрь 2025-йил март 2025-йил октябрь 2026-йил апрель	Транспорт вазирлиги *(И. Махкамов)*, Автомобиль йўллари қўмитаси *(Ж. Турсунов)*, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов)*, Тошкент вилоят ҳокимлиги *(З. Мирзаев)*, Андижон вилоят ҳокимлиги *(Ш. Абдурахманов)*, Фарғона вилоят ҳокимлиги *(Х. Бозаров)* Наманган вилоят ҳокимлиги *(Ш. Абдуразаков)*
III. Коммунал соҳаси				

3.	Салоҳиятли инвесторлар билан биргаликда Фарғона вилояти Данғара ва Бувайда туманлари, Наманган вилояти Косонсой тумани, Жиззах вилояти Зомин ва Бахмал туманлари ҳамда Бухоро вилояти Когон туманида ичимлик ва оқова сув тизимларини модернизация қилиш ва бошқарувга бериш. *(Лойиҳанинг дастлабки қиймати — 100 млн долл.)*	1. Истиқболли стратегик ташаббускорлар билан музокаралар ўтказиш. 2. Лойиҳа концепциясини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш. 3. Хусусий шерикни танлаш. 4. Бошқарувга бериш бўйича ДХШ тўғрисида битим имзолаш.	2025-йил сентябрь 2025-йил октябрь 2026-йил март 2026-йил октябрь	“Ўзсувтаъминот” АЖ *(А. Суванкулов),* Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги *(Ш. Хидоятов),* Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов),* Фарғона вилоят ҳокимлиги *(Х. Бозаров),* Наманган вилоят ҳокимлиги *(Ш. Абдуразаков)* Жиззах вилояти ҳокимлиги *(Э. Салиев),* Бухоро вилоят ҳокимлиги *(Б. Зарипов)*

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 16-sentabrdagi
495-11-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

2024-2030-йилларда давлат-хусусий шериклик асосида амалга ошириладиган лойиҳалар дастури

Т/р	Лойиҳа номи	Ҳудуд номи	Лойиҳа битимини имзолаш муддати	Қиймати *(млн долл)*	Масъуллар
I. Ижтимоий соҳа					
1.1 Мактабгача таълим					
1.	Осиё тараққиёт банки кўмагида 20 000 ўринли 100 та мактабгача таълим муассасасини қуриш, реконструкция қилиш ва жиҳозлаш.	Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри	2025-йил ИВ чорак	75	Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги *(Х. Умарова),* Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов)*
2.	Ташаббускор компаниялар билан биргаликда 2026-йилдан бошлаб ҳар йили камида 100 тадан мактабгача таълим муассасасини қуриш, реконструкция қилиш ва жиҳозлаш.	Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри	2026 — 2030-йиллар	335	Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги *(Х. Умарова),* Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов)*
1.2 Мактаб таълими					
3.	Европа тикланиш ва тараққиёт банки маслаҳат кўмагида Фарғона ва Наманган вилоятларида 10 000 ўринли 15 та умумтаълим мактабини қуриш ва жиҳозлаш.	Фарғона вилояти, Наманган вилояти	2026-йил И чорак	75	Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги *(Х. Умарова),* Фарғона вилоят ҳокимлиги *(Х. Бозаров),*

					Наманган вилоят ҳокимлиги *(Ш. Абдуразаков),* Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов)*
4.	Ташаббускор компаниялар билан биргаликда 2027-йилдан бошлаб ҳар йили камида 100 тадан (жами 450 та) умумтаълим мактабларини қуриш ва жиҳозлаш.	Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри	2027 — 2030-йиллар	3 300	Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги *(Х. Умарова),* Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари*,* Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов)*
1.3 Соғлиқни сақлаш					
5.	Халқаро молия корпорацияси кўмагида Фарғона, Самарқанд ва Хоразм вилоятларида нур билан даволаш марказларини ташкил этиш.	Фарғона вилояти, Самарқанд вилояти, Хоразм вилояти	2025-йил ИВ чорак	30	Соғлиқни сақлаш вазирлиги *(А. Худаяров),* Фарғона вилоят ҳокимлиги *(Х. Бозаров),* Самарқанд вилоят ҳокимлиги *(Э. Турдимов),* Хоразм вилоят ҳокимлиги *(Ж. Рахимов),* Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов)*
6.	Халқаро молия корпорацияси кўмагида Фарғона вилоятида 800 ўринли кўп тармоқли шифохона ташкил этиш.	Фарғона вилояти	2025-йил ИВ чорак	306	Соғлиқни сақлаш вазирлиги *(А. Худаяров),* Фарғона вилоят ҳокимлиги *(Х. Бозаров),* Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов)*
II. Транспорт соҳаси **2.1 Автомобиль йўллари**					
7.	Жаҳон банки кўмагида Тошкент — Андижон пулли автомобиль йўлини (303 км) қуриш.	Тошкент вилояти, Наманган вилояти, Фарғона вилояти, Андижон вилояти	2026 йил ИИ чорак	4 280	Транспорт вазирлиги *(И. Махкамов),* Автомобиль йўллари қўмитаси *(Ж. Турсунов),* Иқтисодиёт ва молия вазирлиги

					(И. Норқулов), Тошкент вилоят ҳокимлиги *(З. Мирзаев),* Андижон вилоят ҳокимлиги *(Ш. Абдурахмонов),* Фарғона вилоят ҳокимлиги *(Х. Бозоров),* Наманган вилоят ҳокимлиги *(Э. Салиев)*
8.	Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларда узунлиги 20 кмгача бўлган (жами 260 км) умумий фойдаланишдаги автомобиль йўлини эксплуатация қилиш.	Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри	2024 — 2026-йиллар	*аниқланмоқда*	Транспорт вазирлиги *(И. Махкамов),* Автомобиль йўллари қўмитаси *(Ж. Турсунов),* Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов),* Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
2.2 Темир йўллар					
9.	Тошкент, Самарқанд ва Қўқон шаҳарларида *жойлашган (“Тошкент-Марказий”, Самарқанд ҳамда Қўқон)* темир йўл вокзалларини модернизация қилиш ва бошқарувга бериш.	Тошкент шаҳри, Самарқанд вилояти, Фарғона вилояти	2026-йил ИВ чорак	50	Транспорт вазирлиги *(И. Махкамов),* “Ўзтемирйўлйўловчи” АЖ *(Ш. Кадиров),* Самарқанд вилоят ҳокимлиги *(Э. Турдимов),* Фарғона вилоят ҳокимлиги *(Х. Бозаров),* Тошкент шаҳар ҳокимлиги *(Ш. Умурзаков),* Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов)*
III. Энергетика соҳаси **3.1 Электр ва газ тақсимлаш тармоқлари**					
10.	Ташаббускор компаниялар билан барча ҳудудларда электр тармоқларини модернизация	Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри	2025-2026-йиллар	2 000	Энергетика вазирлиги *(Ж. Мирзамаҳмудов),* “Ҳудудий электр тармоқлари” АЖ

	қилиш, қуриш ва хусусий сектор бошқарувига бериш.				*(У. Мустафоев),* Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов),* Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
11.	Ташаббускор компаниялар билан барча ҳудудларда газ тармоқларини модернизация қилиш, қуриш ва хусусий сектор бошқарувига бериш.	Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри	2027-йил ИВ квартал	2 000	Энергетика вазирлиги *(Ж. Мирзамаҳмудов),* “Ҳудудгазтаъминот” АЖ *(М. Ходжаев),* Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов),* Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
3.2 Гидроэнергетика					
12.	Салоҳиятли инвесторлар билан биргаликда ҳудудларда умумий қуввати 130 МВт бўлган микро ва кичик ГЕСлар қуриш.	Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри	2024 — 2028-йиллар	325	Энергетика вазирлиги *(Ж. Мирзамаҳмудов),* “Ўзбекгидроэнерго” АЖ *(А. Сангинов),* Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов),* Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
IV.Коммунал соҳа **4.1 Ичимлик сув таъминоти ва оқова сув хизматлари**					
13.	Салоҳиятли инвесторлар билан биргаликда Фарғона вилояти Данғара ва Бувайда туманлари, Наманган вилояти Косонсой тумани, Жиззах вилояти Зомин ва Бахмал туманлари ҳамда Бухоро вилояти Когон туманида ичимлик ва оқова сув тизимларини модернизация қилиш ва	Фарғона вилояти, Наманган вилояти, Жиззах вилояти, Бухоро вилояти	2026-йил ИВ чорак	100	“Ўзсувтаъминот” АЖ *(А. Суванкулов),* Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги *(Ш. Хидоятов),* Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов),* Фарғона вилоят ҳокимлиги *(Х. Бозаров),*

	бошқарувга бериш.				Наманган вилоят ҳокимлиги *(Ш. Абдуразаков)* Жиззах вилояти ҳокимлиги *(Э. Салиев),* Бухоро вилоят ҳокимлиги *(Б. Зарипов)*
14.	Ташаббускор компаниялар билан биргаликда барча ҳудудларда ичимлик сув таъминоти тизимини модернизация қилиш, қуриш ва хусусий сектор бошқарувига бериш.	Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри	2027-йил ИВ чорак	2 000	“Ўзсувтаъминот” АЖ *(А. Суванкулов),* Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги *(Ш. Хидоятов),* Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов),* Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
V. Сув хўжалиги соҳаси					
15.	Халқаро молия корпорацияси кўмагида 200 та йирик насос станциясини модернизация қилиш, қуриш ва бошқариш.	Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри	2026 йил ИВ чорак	300	Сув хўжалиги вазирлиги *(Ш. Хамраев)* Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов),* Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
16.	Ташаббускор компаниялар кўмагида республикадаги маънан эскирган насос станцияларини модернизация қилиш, қуриш ва бошқарувга бериш.	Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри	2028-йил ИВ чорак	*аниқланмоқда*	Сув хўжалиги вазирлиги *(Ш. Хамраев)* Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов),* Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
VI. Экология соҳаси					
17.	Салоҳиятли инвесторлар билан биргаликда 4 та ҳудудда қаттиқ маиший чиқиндиларни саралаш ва қайта ишлаш кластер	Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри	2026 йил ИВ чорак	50	Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги *(А. Абдухакимов),* Қорақалпоғистон Республикаси

	хизматини ташкил этиш.				Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги *(И. Норқулов)*
VII. Қишлоқ хўжалиги соҳаси					
18.	Қишлоқ хўжалигида билим ва инновациялар миллий марказига қарашли ер майдонида янги илмий ишланмаларни жорий қилиш учун кўргазмали майдонларни ташкил қилиш.	Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри	2025-2026 йиллар	аниқланмоқда	Қишлоқ хўжалиги вазирлиги (И. Абдурахмонов) Иқтисодиёт ва молия вазирлиги (И. Норқулов)
19.	Ҳудудларда биолабораторияларни модернизация қилиш, замонавий асбоб-ускуналар билан жиҳозлаш ҳамда ДХШ асосида бошқарувга бериш.	*Пилот сифатида:* Андижон вилояти Бухоро вилояти Қашқадарё вилояти Сурхондарё вилояти Фарғона вилояти Хоразм вилояти	2025-йил ИВ чорак	*аниқланмоқда*	Қишлоқ хўжалиги вазирлиги *(И. Абдурахмонов)* Ўсимликлар карантини ва ҳимояси агентлиги *(И. Эргашев)* Андижон вилоят ҳокимлиги *(Ш. Абдурахманов),* Бухоро вилоят ҳокимлиги *(Б. Зарипов),* Қашқадарё вилояти ҳокимлиги *(М. Азимов),* Сурхондарё вилоят ҳокимлиги *(У. Қосимов)* Фарғона вилоят ҳокимлиги *(Х. Бозаров),* Хоразм вилоят ҳокимлиги *(Ж. Рахимов)*